


**BUXORO VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI**

**BUXORO VILOTATINING
SANOAT ISHLAB CHIQRISHI
2025- YIL YANVAR
(DASTLABKI MA'LUMOT)**




**Tel.: 65-223-80-42
www.buxstat.uz**

Viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari


(2025-yil 1-fevral holatiga ko'ra)

Bugungi kunda viloyatda 3 104 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 694 tasi faoliyat (ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 22,4 % i) Buxoro shahriga, 383 tasi (12,3 % i) G'ijduvon tumaniga, 289 tasi (9,3 % i) Kogon tumaniga, 252 tasi (8,1 % i) Jondor tumaniga, 247 tasi (8,0 % i) Romitan tumaniga, 236 tasi (7,6 % i) Buxoro tumaniga to'g'ri kelmoqda.

Jami faoliyat yuritayotgan



Jami yangi tashkil etilgan



Buxoro sh.	8
Peshku	4
Romitan	3
Vobkent	3
Qorako'l	3
Kogon	2
Jondor	2
Kogon sh.	2
G'ijduvon	1
Olot	1
Qorovulbozor	1
Buxoro	0
Shofirkon	0

● ● Faoliyat yuritayotgan


Yangi tashkil etilgan

Buxoro viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari

Sanoat bu – xomashyoni qayta ishlash, yer osti boyliklarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish vositalari va xalq iste'moli mollarini yaratishni qamrab oluvchi ishlab chiqarish tarmog'i.

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2025- yilning yanvar oyida viloyat korxonalari tomonidan 2 102,1 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan* bo'lib, 2024- yilning yanvar oyiga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi 105,2 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.





Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish, shahar va tuman kesimida

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishining taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Qorovulbozor tumani (31 463,1 ming so'm), Kogon tumani (1 124,6 ming so'm) hamda Kogon shahrida (1 120,0 ming so'm) o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (897,9 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.



viloyatda aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi

1020,2 mln. so'm




ming so'mda o'sish sur'ati, % da

*Yashirin iqtisodiyotni hisobga olgan holda


Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, 1 898,5 mlrd. so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 90,3 % ni tashkil etdi.



2025- yilning yanvar oyida viloyat jami sanoat ishlab chiqarishidagi yuqori ulush Qorovulbozor tumani (30,1 %), Buxoro shahri (11,9 %), G'ijduvon tumani (9,6 %), Romitan tumani (7,2 %) hamda Kogon (4,6 %) tumani hissasiga tog'ri keldi.

Shuningdek o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan yuqori FHI, Buxoro shahri (109,8 %), Olot (108,2 %), Qorako'l (108,1 %) tumanlarida kuzatildi.





Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, shahar va tuman kesimida

Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash – tabiatda qattiq jinslar shaklida uchraydigan (koʻmir, ruda), suyuq holatda uchraydigan (neft) yoki gazsimon holatda uchraydigan (tabiiy gaz) foydali qazilmalarni qazib olishni oʻz ichiga oladi.


Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati korxonalaridan 2025- yilning yanvar oyida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 13,3 mlrd. soʻm yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi 0,6 % ga toʻgʻri keldi.

Sanoat ishlab chiqarishi hajmi, yanvar, mlrd. soʻmda



Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashning jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi


Sanoat ishlab chiqarishi FHI, yanvar, % da




mlrd. soʻmda

FHI, % da

yanvar oyida yirik korxonalar bo'yicha
(o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan % da*)



Neft va tabiiy gaz qazib olish bilan bog'liq burg'ulash xizmatlari



Yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2024- yil yanvar	2025- yil yanvar	Farqi +/-
Oltingugurt, t.	106,0	107,8	1,8
Neft va tabiiy gaz qazib olish bilan bog'liq burg'ulash xizmatlari, mln. s'om	13 100,2	8 350,3	- 4 749,9



* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

Ishlab chiqaradigan sanoat hududlar kesimida

Ishlab chiqaradigan sanoat bu – tarmoq yangi mahsulot chiqarish maqsadida modda yoki komponentlarni, materiallarni, garchi ishlab chiqarishning ma’lum turi uchun birdan-bir to’liq me’zon hisoblanmasa ham, fizik yoki kimyoviy qayta ishlashni o’z ichiga oladi.


2025- yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi* 1 898,5 mlrd. so’mni yoki jami sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi 90,3 % ni tashkil etdi.

*Sanoat ishlab chiqarishi hajmi,
yanvar, mlrd. so’mda*



*Ishlab chiqaradigan sanoatning jami sanoat
ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi*

*Sanoat ishlab chiqarishi FHI,
yanvar, % da*




mlrd. so'mda


FHI, % da

*Yashirin iqtisodiyotni hisobga olgan holda

Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati (o'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*)



O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,2 % ni (2024- yilning yanvar oylarida – 0,1 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 1,8 % (2,2 %), o'rta-quyi texnologiyali – 44,0 % (59,0 %), quyi texnologiyali 54,0 % (38,7 %) ni tashkil etgan.




Jami sanoat tarkibida koks va neftni qayta ishlash mahsulotlarini ishlab chiqarish sohasining ulushi – 28,2 % (2024- yil yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi – 100,2 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarish sohasining ulushi – 29,2 % (2024- yil yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi – 99,1 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 21,7 % (2024- yil yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi – 87,5 %) ni tashkil etdi.

* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati (o'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*)

Shuningdek, ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida boshqa no metall mineral mahsulotlarni ishlab chiqarishning ulushi – 5,6 % (2024- yilning yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 108,4 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 1,9 % (2024- yilning yanvar oyilarga nisbatan fizik hajm indeksi 129,2 %) ni tashkil etdi.



Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

2025- yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoatda 84,2 ming tonna avtomobil benzini (2024- yilning yanvar oyiga nisbatan 8,7 % ga pasaygan), 1 513,6 ming kv. m ip gazlamalari (15,1 % ga pasaygan) ishlab chiqarilgan.


Sanoat mahsulotlari	2024- yil yanvar	2025- yil yanvar	Farqi +/-
Mazut, ming t.	6,9	4,3	- 2,6
O'simlik yog'i (tozalangan), t	1 460,3	1 439,0	21,3
Paxta tolasi, t	8 392,3	8 457,0	- 64,7
Yumshoq bug'doy va spelta uni, t.	1 291,4	3 053,6	- 1 762,2
Paxta chigiti, t.	13 864,0	13 376,0	488,0

* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

Metallurgiya sanoati

Metallurgiya sanoati – cho‘yan ishlab chiqarish va qora va rangli metallarni qayta ishlash, jumladan, quyma cho‘yan va toza metallarga kimyoviy elementlar qo‘shgan holda superqotishmalar ishlab chiqarishni o‘z ichiga oladi.


2025- yilning yanvar oyi yakunlariga ko‘ra, metallurgiya sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 0,2 % bo‘lib, o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 81,6 % ni tashkil etdi va ishlab chiqarish hajmi 3,2 mlrd. so‘mni tashkil etdi.



Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish

Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish – minerallar asosida mahsulotlar ishlab chiqarishga tegishli bo‘lgan ishlab chiqarish turlarini o‘z ichiga olib, shisha va shishadan mahsulotlar, keramik buyumlar, polga o‘rnatiladigan qoplamalar, kafel, cherepitsa, terrakota buyumlar, sement va xomashyodan tayyor mahsulotgacha ishlab chiqarishni o‘z ichiga oladi.


2025- yilning yanvar oyi yakunlariga ko‘ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 5,6 % ni tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 108,4 % ni tashkil etdi va ishlab chiqarish hajmi 106,6 mlrd. so‘mga to‘g‘ri keldi.



Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish – yeyiladigan qishloq xo‘jaligi, o‘rmon va baliqchilik (oziq-ovqat) mahsulotlarini, spirtsiz ichimliklarni, mineral suvlarni va boshqa idishdagi suvlarni o‘z ichiga oladi.


2025- yilning yanvar oyi yakunlariga ko‘ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 23,5 % ni tashkil etib, o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 90,6 % ni tashkil va ishlab chiqarish hajmi 447,0 mlrd. so‘mga to‘g‘ri keldi.



Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

Ichimliklar ishlab chiqarish – spirtsiz ichimliklar va mineral suvlarni ishlab chiqarishni, spirtli ichimliklarni ishlab chiqarishni, asosan fermentatsiya metodi orqali; pivo va vino, shuningdek, distillangan alkogol ichimliklar ishlab chiqarishni o‘z ichiga oladi.


2025- yilning yanvar oyi yakunlariga ko‘ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 0,5 % bo‘lib, o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 42,7 % ni tashkil etdi va ishlab chiqarish hajmi 8,8 mlrd. so‘mga to‘g‘ri keldi.



To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati


To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish – to'qimachilik tolasini tayyorlash va yigirish, shuningdek, to'qimachilik gazlamalarini va tayyor to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish, to'qimachilik mahsulotlariga va kiyimlarga bezak berish, kiyimlardan tashqari tayyor to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.

2025- yilning yanvar oyida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 28,6 % ni tashkil etdi. O'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 97,0 % ni tashkil etib, ishlab chiqarish hajmi 542,1 mlrd. so'mga to'g'ri keldi.



Kiyim ishlab chiqarish – barcha materiallardan (masalan, teri, to'qimachilik gazlamalari, to'qilgan va trikotaj gazlamalari va h.k.) barcha tikish mahsulotlarini (tayyor yoki alohida buyurtma bo'yicha qilingan), kiyimlarning barcha turlari (masalan, ustki kiyim, erkaklar, ayollar va bolalar uchun ichki kiyimlar, ish, ofis, kundalik yoki sport kiyimlari va h.k.) va aksessuarlarni ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.


2025- yilning yanvar oyida kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 3,7 % bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 113,7 % ni tashkil etdi va ishlab chiqarish hajmi 70,7 mlrd. so'mga to'g'ri keldi.



Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish – kimyoviy jarayonlar yordamida organik va noorganik xomashyo, materiallarni qayta ishlashni va tayyor mahsulot ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.


2025- yilning yanvar oyi yakunlariga ko'ra, kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 1,3 % ni, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 137,1 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 23,9 mlrd. so'mni tashkil etgan.



Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish

Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish – foydalanish uchun tayyor bo'lgan xom neft va ko'mir mahsulotlarini qayta ishlashni o'z ichiga oladi. Asosiy faoliyati bu – xom neftni komponentlarga separatsiyasida bo'lgan kreking va distillyatsiyalash yo'li bilan neftni tozalash. Shuningdek etan, propan va butan kabi gaz mahsulotlarini, shu bilan birgalikda neftni qayta ishlash zavodi mahsulotlarini o'z ichiga oladi.


2025- yilning yanvar oyi yakunlariga ko'ra, koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 31,2% ni, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 100,2 % ni tashkil etdi hamda ishlab chiqarish hajmi 591,8 mlrd. so'mga to'g'ri keldi.



Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish

Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish – rezina va plastikdan mahsulot ishlab chiqarishni, ishlab chiqarishda foydalanadigan xomashyo materiallarini o'z ichiga oladi. Lekin bu bo'limga ishlab chiqarishning barcha turlari va materiallari kiradi degani emas.


2025- yilning yanvar oyi yakunlariga ko'ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 0,7 % ni, fizik hajm indeksi 116,0 % ni tashkil qildi hamda ishlab chiqarish hajmida 12,7 mlrd. so'm kuzatildi.



Mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish

Mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish – “toza metallardan aralashmasiz” buyumlar ishlab chiqarish (jumladan, ehtiyot qismlari, konteynerlar va moslamalar), odatda statsionar, faqat elektr, elektron yoki optik asboblardan uchun radiopriborlar, uzatish moslamalari kabi, ko'rsatilgan metallar (ba'zida boshqa metallar bilan) va ancha murakkab birikmalar qotishmalarini ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.



2025- yilning yanvar oyi yakunlariga ko'ra, mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 2,3 % ni, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 130,9 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 43,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Elektr, gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash, shahar va tumanlar kesimida

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash – elektr energiyasini, tabiiy gazni, bug'ni, issiq suvni va shu kabilarni doimiy tarmoqlar – kabellar, quvurlar, suv quvurlari orqali yetkazib berish bilan bog'liq faoliyatni o'z ichiga oladi.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 165,1 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 155,7 % ini) tashkil etgan.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi



mlrd. so'mda ■■■ FHI, % da ○


Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2024- yil yanvar*	2025- yil yanvar
Elektrenergiya, mln.kVt.s	168,2	140,0
Issiqlik energiyasi, ming gkal	103,3	90,0

* 2024-yil yanvar oyi uchun ishlab chiqarish xajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan

2025- yilning yanvar oyida o'tgan yilning mos davriga nisbatan elektr energiya ishlab chiqarish 83,2 % ni, issiqlik energiyasi ishlab chiqarish esa 87,1 % ni tashkil etdi.

(O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*)





* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra


Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish, shahar va tumanlar kesimida

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish – qattiq va suyuq, sanoat va maishiy, shuningdek, zaharlangan chiqindilarning barcha turlariga ishlov berish (yig'ish, qayta ishlash va yo'qotish)ni o'z ichiga oladi.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 25,3 mlrd. so'mga (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,2 % iga) to'g'ri keldi.



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishning jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi




mlrd. so'mda FHI, % da



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

O'tgan yilning mos davriga nisbatan oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 64,6 % ga ko'payishi kuzatildi. Shuningdek axlat o'ralarni, tindirgichlarni va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 5,8 % ga kamaytirish kuzatildi.


Sanoat mahsulotlari	2024- yil yanvar	2025- yil yanvar	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	1 505,6	2 477,8	972,2
Axlat o'ralarni, tindirgichlarni va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln.so'm	38,0	35,8	- 2,2





* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 822,3 mlrd. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib*, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 39,1 % ni tashkil etdi. 2024- yilning yanvar oyida kichik biznes subyektlarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 21,3 % ni tashkil etgan.



Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi



31,9	Vobkent	85,9
40,6	Qorakoʻl	74,4
54,1	Jondor	74,3
36,9	Shofirkon	62,2
44,5	Kogon sh.	61,0
58,2	Kogon	60,5
42,2	Olot	56,0
111,2	Buxoro sh.	44,4
80,3	Gʻijduvon	39,6
27,2	Buxoro	33,1
15,3	Peshku	24,8
34,0	Romitan	22,4
42,6	Qorovulbozor	6,7
	Navoiy	

● mlrd. soʻmda Ulushi, % da

*Yashirin iqtisodiyotni hisobga olgan holda